

PENSIYA FONDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH VA BOSHQARISH USULLARI

Cho'liyeva Gulrux Bahodir qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank va Moliya Akademiyasi

Magistratura mutaxassisligi

"Pensiya fondlarini boshqarish" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pensiya fondining moliyaviy barqarorlashtirish va boshqarish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, pensiya ta'minoti, moliyaviy resurslar, budjet mablag'lari, ijtimoiy nafaqalar, byudjet, kompensatsiya.

Annotation: This article provides information on the methods of financial stabilization and management of the Pension Fund.

Key words: Ministry of Economy and Finance, pension provision, financial resources, budget funds, social benefits, budget, compensation.

Аннотация: В данной статье представлена информация о методах финансовой стабилизации и управления Пенсионным фондом.

Ключевые слова: Министерство экономики и финансов, пенсионное обеспечение, финансовые ресурсы, бюджетные средства, социальные выплаты, бюджет, компенсации.

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tarmoqlararo o'zaro bog'liqlik va muvozanatni inobatga olgan holda mamlakatni o'rta va uzoq muddatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, budjet, soliq va bojxona sohalarida, fuqarolarning pensiya ta'minoti, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasida, auditorlik faoliyatini tartibga solish, budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarni moliyalashtirish, monopolist korxonalarining tovar va xizmatlari uchun narx belgilash, davlat xaridlarini amalga oshirishni tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining strategik makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlariga erishishni ta'minlash funksiyalarini amalga oshiruvchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tasarrufidagi tashkilot hisoblanadi va u pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarни tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalar, funksiyalar va vakolatlarni belgilaydi. Pensiya jamg'armasi idoraviy jihatdan O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligiga qarashli hamda o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirning o‘rinbosariga, Pensiya jamg‘armasining Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Pensiya jamg‘armasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi. Pensiya jamg‘armasi o‘z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Pensiya jamg‘armasi tizimiga:

Pensiya jamg‘armasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;

Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari;

Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari ta’minoti O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Jamg‘arma hamda uning hududiy boshqarmalari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, shuningdek tegishli muhr va shtamplarga ega bo‘ladi.

Quyidagilar Jamg‘armaning asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta’minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovleri va boshqa to‘lovlnarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta’minlash;

- pensiyalar va boshqa to‘lovlnarni to‘liq hajmda moliyalashtirish va to‘lanishini tashkil etish, ular bo‘yicha hisob va hisobotni yuritish;

- tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o‘tkazish va o‘rganishni olib borish, fuqarolarning pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan qat’iy maqsadli foydalanilishini ta’minlash;

- boquvchisini yo‘qotgan taqdirda, shuningdek mehnatda mayib bo‘lganlik yoki xodim mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to‘langan mablag‘larni da‘volar bo‘yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish.

- “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasasi “**b**” bandi va **14-moddasiga** muvofiq tayinlangan pensiyalarni to‘lashga xarajatlarni qoplash uchun mablag‘larni yuridik shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;

Jamg‘arma o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni

amalga oshiradi:

a) Jamg‘armaning daromadlari bo‘yicha:

Jamg‘arma ijtimoiy soliq va boshqa to‘lovlardan tushgan mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda G‘aznachilik deb ataladi) hisob raqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni ta’minlaydi;

har yili manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Jamg‘arma daromadlari tushumlar prognozini ishlab chiqadi;

davlat ijtimoiy sug‘urtasi tizimining barqarorligini ta’minalash va uni yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Jamg‘arma daromadlari va xarajatlarining o‘rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi;

boquvchisini yo‘qotgan taqdirda, shuningdek mehnatda mayib bo‘lganlik yoki xodim mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga sarflangan mablag‘larni “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da’volar bo‘yicha belgilangan tartibda undirib oladi.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 12-moddasi “b” bandi va 14-moddasiga muvofiq tayinlangan pensiyalarni to‘lashga sarflangan mablag‘larni yuridik shaxslardan regress da’volar bo‘yicha belgilangan tartibda undirib oladi;

ijtimoiy soliq va boshqa to‘lovlar tushishi hisobini olib boradi;

b) pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqish bo‘yicha:

pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va qayta hisoblab chiqish uchun zarur bo‘lgan taqdimnomalar, arizalar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, ularni qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiradi;

pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda tayyorlaydi, ko‘rib chiqadi va tekshiradi;

Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlarida pensiyalar tayinlash bo‘yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi;

zarur tarzda rasmiylashtirgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo‘yicha komissiyalar qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi;

pensionerlarning pensiya ishlarini va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning ishlarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomalari beradi;

pensiylar va ijtimoiy nafaqalar tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va dehqon xo‘jaliklari a’zolari tomonidan taqdim etilgan pensiyalar, Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar olish huquqini beradigan hujjatlarning ishonchligini tekshiradi;

v) pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lov larga xarajatlarni amalga oshirish bo‘yicha:

pensiylar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblab chiqish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiradi, pensiya va nafaqalarni yetkazib berish yuklatilgan tijorat banklari filiallari orqali pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to‘lash yuzasidan topshiriqlarni rasmiylashtiradi va beradi;

pensiyanı yetkazib berish (topshirish) yuklangan tashkilot, banklar tomonidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri yetkazib berilishi hamda to‘lanishi yuzasidan doimiy o‘rganishni va nazoratni amalga oshiradi;

yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga, shuningdek dehqon xo‘jaliklari a’zolariga — ular tomonidan ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha badallar to‘langan taqdirda, bola tug‘ilganda bir yo‘la beriladigan nafaqalar hamda dafn marosimi nafaqalar uchun zarur mablag‘larni moliyalashtiradi;

tashkilotlarning ishlaydigan 18 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo‘srimcha dam olish kuni uchun to‘lov, Chernobil halokati oqibatida zarar ko‘rgan fuqarolarga kompensatsiya to‘lovlarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lov larga xarajatlarini moliyalashtiradi;

g) fuqarolarning pensiya ta’mnoti bilan bog‘liq boshqa masalalar bo‘yicha:

ommayiv axborot vositalari yordamida respublika aholisini fuqarolarning pensiya ta’mnoti masalalari bo‘yicha xabardor qiladi;

belgilangan tartibda tayinlangan shaxsiy pensiyalar to‘lanishini tashkil etadi;

imtiyozli pensiya ta’mnoti huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlar ro‘yxatlarini qo’llash masalalari bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi, imtiyozli pensiyalarni takomillashtirish va tartibga solish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini tashkil etadi;

jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqadi, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi;

Pensiya va nafaqalarni yetkazib berish (topshirish) yuklangan tashkilot va tijorat banklarida pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovleri hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi, fuqarolarning pensiya ta’mnoti masalalari bo‘yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy

tajribani o'rganadi;

Jamg'armaning mablag'larini oluvchilar, pensiyalar hamda Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash to'g'risidagi axborotni ishlab chiqishda qatnashadi va avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashni joriy etadi;

pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi; Jamg'arma vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini umumlashtiradi;

pensiya ta'minoti masalalari va Jamg'armaning vakolatiga tegishli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi;

d) Jamg'arma vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha e'tiroz-da'vo ishlari o'tkazilishini tashkil etadi va amalga oshiradi. Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Jamg'arma vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha axborotni davlat organlari va boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish; o'z vazolatlari doirasida Jamg'armaning vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni va metodik hujjatlarni ishlab chiqish;

Ijtimoiy soliq va boshqa to'lovlar miqdorlarini belgilash, shuningdek pensiya ta'minotiga tegishli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha takliflar kiritish;

Jamg'arma vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish. Jamg'arma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Pensiya fondlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va boshqarish usullari muhim masalalardir. Ushbu masalalar bo'yicha bir nechta asosiy yondashuvlar va usullarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Diversifikatsiya: Pensiya fondlari aktivlarini turli xil investitsiya vositalariga (aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk va boshqalar) taqsimlash orqali risklarni kamaytirish.

2. Uzluksiz monitoring: Fondlarning moliyaviy ko'rsatkichlarini doimiy ravishda kuzatish va tahlil qilish. Bu orqali imkoniyatlarni va xavflarni erta aniqlash.

3. Aktiv va passiv boshqaruv: Aktiv boshqaruvda fond menejerlari bozor sharoitlariga qarab investitsiya qilishadi, passiv boshqaruvda esa indekslar orqali investitsiya qilinadi. Har ikkala usulning o'ziga xos afzalliklari bor.

4. Rejalashtirish va prognozlash: Kelajakdagi to'lovlarini va zarur moliyaviy ehtiyojlarni hisobga olib, uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish.

5. Xavf va rentabellikni baholash: Har bir investitsiya imkoniyatining xavf darajasini va potentsial rentabelligini tahlil qilish, bu orqali optimal qarorlar qabul qilish. **6. Normativ-huquqiy bazani inobatga olish:** Pensiya fondlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun va qoidalarni e'tiborga olib, ular bilan mos ravishda faoliyat yuritish.

7. Ta'lim va malaka oshirish:

Fondlar menejerlari va xodimlari uchun doimiy ravishda ta'lim dasturlari va malaka oshirish treninglari o'tkazish.

Bu usullarni amalga oshirish orqali pensiya fondlarining moliyaviy barqarorligi va boshqaruv samaradorligini oshirish mumkin. Bunga qo'shimcha qilgan holda jamg'arma daromadlari quyidagi omillar yordamida shakllanadi:

a) majburiy to'lovlar va badallar: belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to'lov tushumlari; alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari; fuqarolarning sug'urta badallari; jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug'urta badallari; majburiy ajratmalar;

b) boshqa to'lovlar:

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi;

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari;

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari;

dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari;

hisoblangan jarimlar summasining bir qismi hamda majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda Jamg'arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalaridan tashqari);

yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga etkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar;

qonun hujjatlarida taqilangan boshqa manbalar, shu jumladan, Davlat byudjeti mablag'lari va ixtiyoriy badallar. Albatta pensiya jamg'armalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ham bir qator muommolarga duch kelinadi,xususan:

1. **Demografik o‘zgarishlar:** Odamlar umri uzoqlashishi va tug‘ilish darajasi pasayishi, pensiya tizimlariga ortiqcha yukni keltirib chiqaradi.
2. **Bozor xavflari:** Moliyaviy bozorlarning noaniqligi va iqtisodiy o‘zgarishlar jamg‘armalarning investitsiya qiyamatini kamaytirishi mumkin.
3. **Kam investitsiya daromadi:** Past daromadlar va yuqori inflyatsiya pensiya jamg‘armalari uchun tahdid tug‘dirishi mumkin.
4. **Qaror qabul qilishdagi noaniqlik:** Jamg‘arma boshqaruvchilari uchun qarorlarni qabul qilishda noaniqliklar va xatoliklar.
5. **Jamg‘arma boshqaruvining samaradorligi:** Yomon boshqaruv va nazorat tizimlari jamg‘armaning barqarorligini pasaytirishi mumkin. Bunda esa:
 1. **Pensiya reformalari:** Pensiya tizimini yangilash, masalan, pensiya yoshini ko‘tarish, pensiya to‘lovlarini optimallashtirish yoki yangi pensiya to‘lov tizimlarini joriy qilish.
 2. **Sarmoya qilish strategiyalarini takomillashtirish:** Investitsiya strategiyalarini yangilash va o‘zgartirish, yangi va diversifikatsiyalangan investitsiya imkoniyatlarini ko‘rib chiqish.
 3. **Jamg‘arma boshqaruvini yaxshilash:** Boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, malakali boshqaruvchilarni jalb qilish va samarali boshqaruv strategiyalarini joriy etish.
 4. **Shaffoflikni oshirish:** Jamg‘arma faoliyati va investitsiyalari bo‘yicha to‘liq va shaffof hisobotlarni taqdim etish.
 5. **O‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashuv:** Bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni ta’minalash, investitsiya portfelinini va strategiyalarini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish usullarini amalga oshirish bilan bog‘liq bir qator yechimlarni ko‘rshimiz mumkin.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida Harakatlar strategiyasining davomi sifatida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Mazkur Taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy ta’minot, xususan, davlat pensiya ta’minoti tizimini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar aks ettirilgan. Mazkur yo‘nalishlar u yoki bu darajada ijtimoiy ta’minot tizimini, shu jumladan, davlat pensiya ta’minoti tizimini yanada rivojlantirishga va uning barqarorligini ta’minalashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligiga iqtisodiy faol aholining katta qismi pensiya chegaralaridan chetda qolganligi, pensiya fondlarini xususiylashtirish amaliyoti pensiya tizimiga yetarlicha ijobjiy samara keltirmaganligi, pensiya

fondlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri yuqori emasligi, jamg'ariladigan pensiya tizimi joriy etilgan mamlakatlarda o'rtacha yillik investitsion daromadlar muntazam pasayib borayotganligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Pensiya tizimining samarali va moliyaviy barqaror faoliyat yuritishi uchun pensiya tizimi ijtimoiy samarali va shaxsiy adolatni ta'minlaydigan, pensiyalar mehnat faoliyat jarayonida to'langan sug'urta badallari miqdoriga mutanosib ravishda mehnat daromadlarini yo'qotishini qoplaydigan hamda pensiya badallari xo'jalik subyektlari, fuqarolar uchun moliyaviy jihatdan og'irlilik tushirmaydigan darajada iqdisodiy qulay tarzda tashkil etilishi zarur. Pensiya ta'minoti uzoq muddatli istiqbolda samarali faoliyat yuritish uchun sug'urta fondlarining moliyaviy manbalari va pensiya to'lovleri aniq va kafolatlangan holda rejalashtirilishi kerak. Pensiya ta'minotining qamrov darajasini oshirish uchun fuqarolarni pensiya ta'minoti tizimida majburiy ishtirokini ta'minlash chora tadbirlarini ishlab chiqish hamda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini muntazam baholab, monitoringini yuritilishi zarur.

Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyasiga muvofiq, fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimi barqaror faoliyat yuritishi uchun pensiya ta'minoti tizimiga sug'urta badali to'lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o'zaro nisbati 4:1 darajada bo'lishi ijobiy holat hisoblanadi. Biroq, bugungi kunda O'zbekistonda mazkur ko'rsatkich amalda 1,5:1 nisbatni tashkil qiladi. 2018-2025-yillar uchun demografik prognozlarga ko'ra, O'zbekiston aholisi tarkibida pensiya yoshidagi aholining ulushi (1,2 mln. kishiga) ko'payishi kutilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarining mutanosib ravishda ortishiga olib keladi.

Kelgusi yillarda O'zbekiston pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va Pensiya jamg'armasiga tushumlarni oshirish uchun norasmiy iqtisodiyotni legallashtirish va O'zbekistondan mehnat migrantlarini qabul qilayotgan mamlakatlar bilan davlatlararo shartnomalarni tuzish orqali ijtimoiy to'lovlarini to'lovchilarni qamrab olishni kengaytirish uchun shart-sharoitlarni yaratish zarur, deb hisoblaymiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahriri.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni 1993-yil 3-sentabr "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" 938-XII-sون Qonuni.
3. Qosimova G.A. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: "Iqtisod moliya", 2007. I486.
- 4.. Sholdarov D., Tursunov J. O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish. "Moliya" ilmiy jurnali. 2018-yil 1-son. 107 b.
5. Abdullayev Z. Pensiya ta'minoti tizimi va uning dolzarb muammolari. "Xalqaro moliya va hisob" elektron jurnali. № 2, oktyabr, 2016-yil. <http://interfinance.uz/en/arxiv/223-arxiv2>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF 60-son Farmoni.
7. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizom.
8. Lex.uz